

KIVI YETISHTIRISHDA TEXNOLOGIK JARAYONLARINING HOSILDORLIGIGA BEVOSITA TA'SIRINI O'RGANISH

Bekmirzayeva Gulhayo Mirzohidjon qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Odinajonova Zulfiya Xamidjon qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Yigitaliyeva Gulhayo Obidjon qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Niyazmatova Odinahon Ergashbaevna

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya: *Ilmiy ishning asosiy maqsadi shundan iboratki O'zbekiston xududida Ximoyalangan yerlarda keng miqyosda kivi o'simligini (Actinidiya Chinneq) turli xil navlarini yetishtirish texnologiyasining ilmiy asosini o'rganish hamda axolini ushbu vitamanga boy bo'lgan o'simlik bilan muntazam ravishda ta'minlashga qaratilgan masalalar yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'z: *(Actinidiya Chinneq), vitamin, nav, suv, adaptatsiya, ildiz, havo, tuproq, kasallik, foydali.*

Annotation: *The main goal of the scientific work is to study the scientific basis of the technology of growing different varieties of kiwi plant (Actinidia chinneq) on a large scale in Protected Lands on the territory of Uzbekistan, and provide information on issues aimed at regularly providing the population with this vitamin-rich plant.*

Keywords: *(Actinidia Chinneq), vitamin, variety, water, adaptation, root, air, soil, disease, beneficial.*

Аннотация: *Основной целью научной работы является изучение научных основ технологии выращивания разных сортов растения киви (Actinidia chinneq) в больших масштабах на заповедных землях на территории Узбекистана и предоставление информации по вопросам, направленным на регулярное обеспечение населения этим богатым витаминами растением.*

Ключевые слова: *(Actinidia Chinneq), витамин, сорт, вода, адаптация, корень, воздух, почва, болезнь, полезность.*

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng qishloq xo'jaligida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yuqori samarali isloxtlar o'tkazildi. Fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, agrofimlar tashkil etildi. Bu xo'jaliklar keyingi yillarda optimallashtirildi. Ko'p tarmoqlixo'jaliklar tashkil topdi. Hozirgi vaqtda bu xo'jaliklar respublikada yetishtirilayotgan maxsulotlarning 90%dan ortig'i fermer xo'jaliklari hisobiga to'g'ri kelmoqda. Fermerlarimiz chet el investitsiyalarini mamlakatimizga olib kirish bilan birga yangi ekin turlarini yangi texnologiyalarni ham olib kirmoqdalar. Shunday ekin

turlaridan biri Kivi o'simligidir. Shularni xisobga olgan holda buo'simlik mevalarini o'zimizni iqlim sharoitimizda o'stirib ularni adaptatsiya qilish va sekin asta iqlim sharoitimizga moslashtirib borish kabi ishlarni amalga oshirish asosiy vazifalarimizdan biridir. Hozircha bu o'simliklarni himoyalangan yerlarda yetishtirish aholini servitamin kivi bilan ta'minlash shu bilan birgalikda mevachilik sohasida yana bir tur o'simlik assortimentini vatanimizda ko'paytirish dolzarb masalardan biri bo'lib xisoblanadi. Kivi mevasi juda ko'p foydali xususiyatlarga ega, xususan xomilador ayollar uchun foydali bo'lgan Mg ga, C vitaminiga boy. Bu esa kuchli antioksidant bo'lib, organizmni tez toliqib qolishidan saqlaydi, immunitetni oshiradi, yallig'lanish va miyaga qon quyilish xavfini kamaytiradi. Kivi terini tozalash, namlash, yoshartirish, oziqlantirish uchun kosmetik niqoblar tayyorlashda ham ishlatiladi. Kivi o'simligi o'zining be'qiyos ta'mi, vitamininga boyligi, xushbo'y xidi, qayta ishlash va tashishga yaroqliligi, yetishtirish va ko'paytirishning u qadar murakkab emasligi va shu kabi bir qator afzalliklari bilan dunyoning ko'pgina mamlakatlarida yuqori baxolanadi. So'nggi yillarda Respublikamizda ham xalq iste'moli, shuningdek, mustaqillikdan keyingi yillarda mamlakatimiz qayta ishlash sanoatining mazkur ekinga bo'lgan talabi keskin ortib bormoqda. 2017-2021yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining 3.3 bandida «Respublika tuproq-iqlim sharoitlariga mos, qurg'oqchilikka, issiqlikka va kasalliklarga chidamli qishloq xo'jalik ekinlari navlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish» muhim strategik vazifalardan biri sifatida alohida belgilab qo'yilgan. TSitrus ekinlar assortimentini shunday navlar bilan boyitish, ularni ko'paytirish va yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish respublikamiz qishloq xo'jaligi sohasidagi dolzarb vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, 2018-yil 29-martdagi PF-5388-son «O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2019- yil 20-martdagi PQ-4246-son «O'zbekistonda bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi, 2019-yil 11-dekabrda PQ-4549-son «Meva- sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi»gi qaror va farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi Kivi o'simligi o'zining beqiyos ta'mi, vitamininga boyligi, xushbo'y xidi, qayta ishlash va tashishga yaroqliligi, yetishtirish va ko'paytirishning u qadar murakkab emasligi va shu kabi bir qator afzalliklari bilan dunyoning ko'pgina mamlakatlarida yuqori baxolanadi. So'nggi yillarda respublikamizda ham xalq iste'moli, shuningdek, mustaqillikdan keyingi yillarda mamlakatimiz qayta ishlash sanoatining mazkur ekinga bolgan talabi keskin ortib bormoqda.

Ilmiy ishning maqsadi va vazifalari. O'zbekiston sharoitida himoyalangan yerlarda Kivi yetishtirishni zamonaviy texnologiyasini o'rganish. Bu mavzuni

tanlashdan maqsad Kivi o'simligi issiq tropik iqlimi bo'lgan hududlarda o'stiriladi. Kivi daraxtga o'xshash tropik lianadir, uning yashash joyi Italiyaning subtropiklari, Abxaziya, Yangi Zelandiya, Chili va Qoradengiz sohillarida joylashgan. Uning vatani Xitoy xisoblanadi. Bizning mamlakatimiz iqlim sharoitlari mos kelmaydi, shunga qaramasdan mirishkor dexqonlarimiz himoyalangan yerlarda Kivi yetishtirib axolini servitamin kivi maxsulotlari bilan ta'minlashni oldilariga maqsad qilib qo'yishgan. Kivi yetishtirishni zamonaviy usullarini ilmiy asoslarini o'rganish ushbu ishning maqsadidir.

Tadqiqot natijalari. O'tkazilgan tadqiqotlarda issiqxonalarda yetishtirilayotgan kivi navlarining xo'jalik-biologik xususiyatlari o'rganiladi hamda istiqbolli navlar ajratib olinadi. Kivi yetishtirish texnologiyasi ilmiy asosda o'rganilib iqtisodiy samaradorligini aniqlanadi. Kivi o'simligini issiqxonalarda yetishtirishni ilmiy asoslari xamda samaradorligi bo'yicha ishlab chiqarishga tavsiyalar beriladi.

Natijalarning xo'jalik samaradorligi: Andijon viloyatining issiqxona sharoitida o'tkazilgan tadqiqotlarda kivi o'simligini yetishtirish texnologiyasining ilmiy asoslari o'rganiladi xamda samaradorligi aniqlanadi.a.

Xulosa. 1. Kivi o'simligi o'zining be'qiyos ta'mi, vitamining boyligi, xushbo'y xidi, qayta ishlash va tashishga yaroqliligi, yetishtirish va ko'paytirishning u qadar murakkab emasligi va shu kabi bir qator afzalliklari bilan dunyoning ko'pgina mamlakatlarida yuqori baxolanadi.

2. Kivini yetishtirishda yana bir o'ziga xos qulayligi shundaki uni yetishtirish uchun ortiqcha daromad harajat, agrotexnika hamda mexnat talab etilmasligi va oziqlantirish ratsioni ham oddiyli, issiq va sovuq haroratga chidamligidir.

3. Hozirgi kunda Kivi o'simliklari parvarish qilib kelinmoqda ularni sug'orish va o'g'itlash ishlari xam tomchilatib sug'orish sistemasi orqali olib borilmoqda. Issiqxona ichidagi Kivi ekiladigan tuproqlar chirindiga boy tuproqlar bilan boyitildi va tomchilatib sug'orish sistemasi o'rnatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston respublikasi prezidentining respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug'chiligini yanada rivojlantirish to'g'risidagi 2020-yil 6-maydagi PQ-4704- son qarori.

2. Ostonaqulov TE, Zuyev VI, Qodirxo'jayev OK. Sabzavotchilik; Darslik.Navro'z.-Toshkent; 2018 (2020)- 552 bet

3. Ostonaqulov. O'zbekistonda tugunak mevali ekinlar. Monografiya; Navro'z.-Toshkent: 2020- 324 bet